

Urakov.K.H. Assistant
Abdusamadov Azizbek Ilyos o'g'li. Student
Eshmurodova Sitora Davron qizi. Student
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti
O'zbekiston, Samarqand

«AYOLLAR SALOMATLIGI»

BACHADON RAKINING MORFOLOGIK JIHATLARI

Assistent: Urakov K.N. Student: Abdusamadov Azizbek, Eshmurodova Sitora.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Anotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada bachadon rakining morfologik va klinik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot Samarqand davlat tibbiyot universitetining 1-klinikasida so'nggi 10 yil davomida to'plangan 227 nafar bemorning operatsion va biopsiyaviy materiallari asosida olib borilgan. Tahlillar natijasida bachadon bo'yni rakı ko'proq yosh ayollar orasida, bachadon tanasi rakı esa yoshi katta ayollar orasida uchrashi aniqlangan. Gistologik jihatdan bachadon tanasida asosan adenokarsinoma, bachadon bo'ynida esa yassi hujayrali rak kuzatilgan. Kasalliklar ko'pincha prekasallik holatlari — displaziya, hiperplaziya, polipoz va surunkali yallig'lanishlar fonida rivojlangan. Ushbu tadqiqot bachadon rakining erta diagnostikasi va profilaktikasi bo'yicha muhim ma'lumotlar beradi.

Kalit so'zi

Bachadon raki, morfologiya, adenokarsinoma, yassi hujayrali rak, biopsiya, klinik tahlil, preinvaziv karşinoma, displaziya, hiperplaziya, onkoginekologiya.

Urakov K.N. Assistant
Samarkand State Medical University
Uzbekistan, Samarkand.

"WOMEN'S HEALTH"

MORPHOLOGICAL ASPECTS OF UTERINE CANCER

Abstract

This scientific article analyzes the morphological and clinical features of uterine cancer. The study was conducted based on operational and biopsy materials of 227 patients collected over the past 10 years at the 1st clinic of Samarkand State Medical University. The analysis revealed that cervical cancer occurred more

frequently in younger women, while endometrial (uterine body) cancer was more common among older women. Histologically, adenocarcinoma was more frequently found in the uterine body, whereas squamous cell carcinoma was predominant in the cervix. The disease often developed against a background of precancerous conditions such as dysplasia, hyperplasia, polyposis, and chronic inflammatory processes. This research provides important insights for early diagnosis and prevention of uterine cancer.

Keywords

Uterine cancer, morphology, adenocarcinoma, squamous cell carcinoma, biopsy, clinical analysis, preinvasive carcinoma, dysplasia, hyperplasia, oncogynecology.

Dolzarbli.

Bachadon raki — dunyo miqyosida, shuningdek, O'zbekistonda keng tarqalgan patologiyalardan biridir. Butun dunyo bo'yicha tibbiyot xodimlarining e'tibori aynan saratonning invazivgacha bo'lgan bosqichida erta aniqlanishiga qaratilmoqda.

Garchi bu patologiyaning klinik-morfologik xususiyatlariga oid adabiyotlar yetarli bo'lsa-da, bachadon rakiga oid har qanday statistik va morfologik lokal tadqiqotlar klinik onkologiya uchun katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi.

Biz tomonidan so'nggi 10 yil davomida SamDTU 1-klinikasiga tushgan bachadon raki bilan bog'liq operatsion va biopsiyaviy materiallar o'rganildi. Tadqiqot klinik-morfologik tahlil asosida, bachadon raking muayyan gistologik shakllari va lokalizatsiyasiga qarab olib borildi.

Tadqiqot materiallari va usullari.

Tahlilga 29-79 yoshdagi jami 227 nafar bemorning materiali kiritildi. Ulardan 78 nafari operatsiya orqali olib tashlangan bachadonlar, 149 nafari esa nishonli biopsiyalar orqali aniqlangan rak o'smalariga to'g'ri keladi. Operatsiya qilingan bemorlar yoshi 29-79 yil orasida, biopsiya olinganlar esa 29-69 yosh oralig'ida edi. Preparat kesmalari gematoksilin-eozin bilan bo'yalgan.

Tadqiqot natijalari.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, operatsiya qilingan bemorlar orasida 47 nafarida bachadon tanasining rak kasalligi, 31 nafarida esa bachadon bo'yni rakı aniqlangan. 11 bemorda invaziv bo'lmagan, 20 nafarida esa invaziv shakldagi bachadon bo'yni rakı aniqlangan.

Bachadon bo'yni rakı, asosan, 29-51 yoshdagi ayollarda, bachadon tanasi rakı esa yoshi 41-79 oralig'idagi ayollarda uchragan.

Gistologik tuzilishiga ko'ra 7 bemorda xorionepitelioma aniqlangan, bu bemorlar 27-44 yosh oralig'ida bo'lgan.

Operatsion materiallar asosida eng ko'p uchragan shakl — bachadon tanasidan o'suvchi adenokarsinoma (49 holat).

Bachadon bo'ynida esa asosan yassi hujayrali rak kuzatilgan. Kamroq hollarda bachadon tanasida adenoakarsinoma (9 bemor) va differensiyalanmagan karsinoma (5 bemor) qayd etilgan.

Biopsiya materiallari asosida esa 149 bemorda rak tashxisi qo'yilgan. Ulardan 27 nafari (29-44 yosh oralig'ida) preinvaziv kar'sinoma (carcinoma in situ) bilan aniqlangan.

Klinik materiallar tahlili shuni ko'rsatdiki, bachadon rakiga ko'p hollarda quyidagi holatlar zamin yaratgan:

takrorlanuvchi yallig'lanish jarayonlari, endometriy gipertrofiyasi, displaziya, endometriy polipozi, adenomioz, atipik bezli gipertrofiyalar, bachadon bo'yni leykoplakiya va eroziyalar.

Xulosa.

227 nafar ayol materiallari tahlili shuni ko'rsatdiki, bachadon bo'yni rakı ko'proq 29-51 yoshdagi ayollarda kuzatilgan.

Ular anamnezida uzoq davom etgan disgomonal kasalliklar, surunkali servitsit, displaziya va leykoplakiya holatlari bo'lgan.

Bachadon tanasida asosan adenokarsinoma, bachadon bo'ynida esa yassi hujayrali rak uchragan.

Bachadon rakı ko'pincha obliyat yoki fakultativ prekasallik holatlari fonida rivojlangan.

Adabiyotlar

1. Исламов Ш. Э., Ураков К. Н., Нормакматов И. З. ЗАЩИТА ПРАВ ПАЦИЕНТА ПРИ ПРОВЕДЕНИИ МЕДИЦИНСКИХ ЭКСПЕРИМЕНТОВ //ТВЕРСКОЙ МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ Учредители: Тверской государственный медицинский университет,(4). – С. 93-95.
2. Болысбек А. А. и др. Методы гранулирования удобрительных композиций //Сборник избранных статей по материалам научных конференций ГНИИ" Нацразвитие". – 2019. – С. 178-180.
3. Ураков К. Н. К ПРОБЛЕМЕ МУКОВИСЦИДОЗА //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 23. – №. 6. – С. 164-166.
4. Ураков К. Н. АНАЛИЗ ДЕТСКОЙ ЛЕТАЛЬНОСТИ ОТ ПНЕВМОНИЙ //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 23. – №. 6. – С. 167-168.

5. Бобоназаров С. Д., Норжигитов А. М., Ураков К. Н.
РЕЗУЛЬТАТЫ ХИРУРГИЧЕСКОГО ЛЕЧЕНИЯ
РЕДИЦИВНОГО ЭХИНОККОКОЗА ЛЕГКИХ В
ЗАВИСИМОСТИ ОТ МОРФОЛОГИЧЕСКИХ
МОДИФИКАЦИЙ КИСТЫ //International scientific review. –
2020. – №. LXXV. – С. 71-76